

MYSTICAL THEMES IN UZBEK LITERATURE AND THEIR STUDY

Quljanova To‘lganoy Shodiyor qizi

Samdu 2-kurs magistranti

quljanovat@gmail.com

Abstract

This article provides comments on the introduction of mystical ideas into Uzbek literature and the development of Sufi literature. The gradual development of mystical ideas in Uzbek literature and its study, including the literary and critical views of Najmiddin Kamilov and Ibrohim Hakqul, are analyzed. In addition, the influence of Sufi ideas in the works of such creators as Rabguziy, Yassaviy, Navoiy, Mashrab and the new interpretation of the Sufi tradition in contemporary literature are discussed.

Keywords: Sufi doctrine, purification of the soul, Yassaviy, Navoiy, Mashrab, modern literature, tradition and innovation.

Introduction

Islom sivilizatsiyasi ta’sirida yashagan xalqlar madaniyati va qadriyatlari bevosita islom dini ta’sirida rivojlanadi. Shuningdek mazkur xalqlar adabiyoti ham mohiyatan islomiy g‘oyalarga asoslangan mavzularda qayta shakllandi rivojlandi va dunyoga yoyildi. Shu o‘rinda so‘fiylik adabiyotining yuzaga kelishida bosh omil bo‘lgan tasavvuf ta’limotini aytib o‘tish o‘rinlidir. Chunki islomiy ruh ta’sirida paydo bo‘lgan tasavvufiy-falsafiy qarashlar ham badiiy adabiyotning yangi bosqichda rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. O‘zbek adabiyoti ham tasavvuf falsafasining g‘oyalari ta’sirida yuksak pog‘onaga ko‘tarildi deyish mumkin. Imom Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o‘zining “Tasavvuf haqida tasavvur” kitobida tasavvufni islom dini ruknlaridan biri ekanligini, keyinchalik falsafiy tus olganligini aytib o‘tadi. Shunga ko‘ra, imom tasavvufni sunniy va falsafiy tasavvufga bo‘ladi. Badiiy adabiyot falsafiy tasavvuf doirasida rivojlandi. O‘zbek adabiyotida tasavvuf ahli- so‘fiylar, avliyolar, valiyalar va ularning hollari haqida Rabg‘uziyning “Qisas ul- anbiyo” asarida bir rivoyat keltiriladi. Rivoyat mazmuni quyidagicha: Odam avlodlarini dunyoni ko‘rib kelinglar deb dunyoga yubordi. Dunyoga keldilar. Dunyoni ko‘rdilar. U yerda qoldilar. Ozrog‘i qaytib keldilar. “Boshqalaringiz qani?”, - degan xitob bo‘ldi. “Dunyoni ko‘rdilar, ko‘ngillari dunyoni xush ko‘rib, u yerda qoldilar”, - deb javob berdilar. Xabar keldi: “Jannatga boring, jannat nima ekanligini ko‘ring”. Bordilar va jannatni ko‘rdilar. Ularning ham bir qismi jannatda qoldilar. Xabar keldi: “Boshqalaringiz qani?”. “Ilohiy, ular jannatni xohladilar va o‘sha yerda qoldilar”, - deb javob berdilar. Dunyoda qolganlar kofirlar edilar, jannatda qolganlar mo‘minlarning avomlari edilar, jannatni ham unamasdan huzuriga kelganlar xos qullari edi. Xabar keldi: “Dunyoga ko‘ngil bermadingiz, jannatni xohlamadingiz, endi nima istaysizlar?”. Aytidilar: “Ilohiy, bizga dunyo kerak emas, jannat kerak emas. Bizga sen keraksan”. Xabar keldi: “Kim meni istasa, mening xazinam ichida qaysi balo ulug‘roq bo‘lsa, shu baloni unga beraman”. Aytidilar: “Shu baloni berishda, sen biz bilan birga bo‘lasanmi?”. Aytidi: “Birga bo‘laman”. Aytidilar: “Ilohiy, balo berishda sen biz bilan birga bo‘lsang, qancha balolarni bizga havola



qilsang, biz qabul qilamiz”, - dedilar. “-Darhaqiqat, baloning eng qattig‘i payg‘ambarlarga keladi, undan so‘ng avliyolarga keladi va undan so‘ng tartib bilan...”¹. Rivoyat mazmunidan aniq bo‘ladiki, dunyo va jannatni qo‘yib qalbiga faqat Alloh muhabbatini joylagan inson valiylik darajasiga yetishadi. Turkiy so‘fiylik adabiyotining rivojlanishida o‘z tariqatiga ega bo‘lgan so‘fiy Ahmad Yassaviy alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” ida insonni komillikka yetaklash, nafsni poklash, ibodat va zikr bilan Haqni topish mavzulari yoritilgan. Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlaridagi asosiy g‘oya komillik yetish bo‘lib, mutafakkir ramziy-tasavvufiy obrazlar orqali so‘fiylik adabiyotini yuksak pog‘onaga ko‘tardi. Keyingi davrlarda Mashrab, So‘fi Olloyor kabi shoirlar ijodida tasavvufiy-falsafiy qarashlar isyonkorona, tarkidunyochilikka asoslangan holda ifodalandi. Xalqimiz tarixida sodir bo‘lgan mustabid tuzum davridagi o‘tmishni rad etilishi, qadriyatlarning poymol bo‘lishi kabi siyosiy tazyiqlar adabiyotni ham cheklab o‘tmadi. Tasavvuf ta‘limoti ilgari surgan g‘oyalar xalq hayotidan, qolaversa, badiiy ijoddan ham siqib chiqarildi. Bu mavzuga nisbatan bir yoqlama qarash avj oldi.

Xalqimizning mustaqillikka erishishi barcha jabhalarda bo‘lgani kabi, badiiy ijod muhitiga ham o‘zining ijobiy ta‘sirini o‘tkazdi. Zamonaviy ijodkorlar endi mafkuraviy qoliplarga asoslangan adabiyotdan voz kechib, turli tamoyillarga asoslangan yangicha adabiyotga asos solmoqdalar. Xususan, hozirgi zamon she‘riyatida qadriyatlarga qaytish tamoyili yetakchi bo‘lib, jumladan diniy, tasavvufiy, falsafiy mavzular keng yoritila boshlandi. Bunday ijodkorlarga Abduvali Qutbiddin, Usmon Azim, Xurshid Davron, Asqar Mahkam, Nodira Afaqova kabilarni kiritish mumkin. Ular o‘z she‘rlarida tasavvufiy mavzularni yoritish bilan birga, yosh kitobxonni dunyoni tasavvufiy nigoh bilan tahlil qilishga undadi.

Asqar Mahkam she‘riyati haqida gap ketganda uning ma‘naviy- tarbiyaviy mazmuniga ham e‘tibor berish lozim. Chunki shoir ijodida insonning axloqiy komillikka intilishi va ilmning ahamiyatiga doir g‘oyalar ilgari surilgan. Shoir ijodida ma‘rifat va ilm ulug‘lanadi va bu an‘anaviy ohanglar badiiy adabiyotning bosh maqsadlaridan biridir. Asqar Mahkam she‘rlarida milliy ruh, ma‘rifat va tasavvuf g‘oyalari uyg‘unlik kasb etadi. U ruh va vujud, qalb va qiyofa munozaralari orqali antitezaga asoslangan poetik voqelikni tasvirlaydi. Ruh jism nomli qafasga qamalgan va u ozod bo‘lishni, o‘z manziliga ketishni istaydi. Ruh ilohiylik, jism esa dunyoviylik kasb etadi.

Potirlaydi jonim kamandida qush,
unga Rahmon hukmi, mengada rahim.

Afrosiyob yanglig‘ yotarlar behush,
Ejoz maqomiga vosil pirlarim.²

Shoir Abduvali Qutbiddin ijodi ham mavzu va tuzilishiga ko‘ra rang-barang bo‘lib, uning “Nayson”, “Humo”, “Baxtli yil”, “Sen va sen uchun”, “Xayol kechasi”, “Uzoqdan olisga”, “Bor” she‘riy to‘plamlari, “Tasavvur lahzalari”, “Barokko”, “Onchaki”, “Nazmdagi nasr”, “Erkin aruz”, “Illustratsiya” kabi turkum she‘rlari, “Izohsiz lug‘at”, “Ozodlik” nomli dostonlari zamonaviy she‘riyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Uning “Izohsiz lug‘at” dostonini tasavvufiy-

¹ Носуруддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисас ар-Рабғузий (Табдил муаллифи филология фанлари доктори Усмон Қобилов). – Самарқанд: “Зарафшон”, 2022 йил, 36- бет.

² Маҳкам А. Ҳақ. Душанбе “Адаб”, 1998. 302-бет.



ma'rifiy jihatdan tahlil qilish mumkin. Dostonda identitet muammosi ko'tarilgan bo'lib, lirik qahramon o'z haqiqatini izlab o'z "men" iga qarshi isyon ko'taradi.

*"Hammayoq yig'i, hammayoq yig'i, hammayoq yig'i,
Yig'layapman men ham, yig'layapman men ham!..."*³

O'zbek adabiyotshunosligida tasavvuf adabiyoti ko'pgina adabiyotshunoslra tomonidan o'rganilmoqda. Ayniqsa, Najmiddin Komilov va Ibrohin Haqqul kabi adabiyotshunoslarning ishlari diqqatga sazovor. Ushbu olinlar tasavvuf adabiyotini, tasavvufiy-ma'rifiy she'riyat poetikasi va uning o'zbek adabiyotidagi o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rgangan. Najmiddin Komilovning "Tasavvuf", "Tavhid asrori" kabi, Ibrohim Haqqulning "Tasavvuf va she'riyat", "Irfon va idrok" kabi risolalari adabiyotshunoslik uchun muhim manba bo'lib, o'zidan keyingi tadqiqotlar uchun qo'llanma vazifasini bajarib kelmoqda. Ushbu olimlar tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, shariat va tariqat o'rtasidagi munosabati, falsafiy tasavvuf va "komil inson" kabi masalalarni adabiy jihatdan tahlil qilgan.

Xulosa qilib aytganda ming yillik tarixga ega tasavvuf g'oyalari o'zbek adabiyotida ham o'z o'rniga ega bo'lib, bu g'oyalar hozirgi zamon she'riyatida yangicha qiyofada qayta jonlanmoqda. Jumladan Abduvali Qutbiddin va Asqar Mahkam ijodida bu jihat ko'zga tashlanadi. Tasavvuf adabiyoti zamonaviy shoirlar tomonidan qayta talqin qilinishi bugungi adabiyotshunoslik oldiga dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Albatta, tasavvufiy ruhdagi asarlarni tahlil qilishda Najmiddin Komilov va Ibrohim Haqqul kabi adabiyotshunos olimlar boshlab bergan tahlil usullari samarali yo'l hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvali Qutbiddin. Bor. –Toshkent.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyat matbaa ijodiy uyi, 2011.-320 b.
2. Бадиий адабиёт ва тасаввув тимсоллари.–Тошкент, 2010, 198–б.
3. Маҳкам А. Ҳақ. –Душанбе "Адаб", 1998. 551-б.
4. Маҳкам А. Ваҳдат куйи.–Ташкент.: "Nurafshon business", 2021, 366–б.
5. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. –Toshkent: "Movaraunnahr", 2019, 447–b.
6. Носуруддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисас ар-Рабғузий (Табдил муаллифи филология фанлари доктори Усмон Қобилов). – Самарқанд: "Зарафшон", 2022 йил, 520 б.
7. Қутбиддин А. Изоҳли луғат. Достон. Шарқ юлдузи. 1990, №10.
8. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввув ҳақида тасаввур. – Тошкент: "Ҳилол-Нашр", 2016, 296-б.

³ Қутбиддин А. Изоҳли луғат. Достон. Шарқ юлдузи. 1990, №10.

